

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA HARAKATLI O'YINLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Mirzayev Ibroxim Ilhomovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab yoshdagi bolalarda harakatli o'yinlarni qo'llash orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o'yinlardan foydalanish va shu asosida umumta'lim maktablari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari va usuliy yo'llarini aniqlash, hamda maqsadga erishish jarayonida umumta'lim maktablari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish uchun olib borilayotgan jismoniy tarbiya va harakatli o'yinlar tarixi haqida tadqiqot olib borish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: *Umumta'lim maktablari, harakatli o'yin, harakat faoliyati, harakat sifati, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifat, sog'lomlashtirish, qobiliyat, fiziologik omillar, mushak, vegetativ organlar faoliyati.*

O'zbek xalq harakatli o'yinlarining paydo bo'lishida va rivojlanishida shu kungacha saqlanib qolgan (yunon, rim, arab-fors mualliflarining qo'lyozmalari, turkiy bitiklar) qadimiy me'morchilik obidalari va amalga oshirilgan arxeologik qazilmalarning natijalari, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari (epos, doston, rivoyat, afsona, topishmoq, o'yin, raqs, musiqa va boshqalar) g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan o'zbek xalq harakatli o'yinlari jismoniy madaniyat, yosh avlodni tarbiyalash va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. O'rganilgan ilmiy-uslubiy va maxsus manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, ajdodlarimizning madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va maishiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu esa o'yinlarning xalqimiz madaniy turmush tarzi va jismoniy madaniyati bilan uyg'unlikda taraqqiy etib kelganligidan dalolat beradi. Lekin ajdodlarimiz o'yinlarining tarixiy taraqqiyotini turli ijtimoiy tuzum davrlaridagi madaniyati, ma'rifati, tarixiy voqealari hamda an'analaridan alohida ajratib o'rganib bo'lmaydi.

Ibtidoiy odamning e'tiqod va tasavurlari olamni bila borish va idrok etish darajasi bilan bog'liq bo'lgan. Darhaqiqat, Z. Husaynovaning [4] yozishicha: "O'tmishda tabiat va

tabiat hodisalarining o'zi bir jumboq bo'lganki, odamlar uning sirini bilmaganlar va yecha olmagaylar, ularga u sirli bir mo'jizadek bo'lib ko'ringan". Shaxs o'zini qurshab turgan tashqi obyektiv olamni taniy boshlagan bir paytda undagi narsa va hodisalarning qaysi yo'l bilan yaratilishini anglash, bilish istagida solishtirish, qiyoslash va ba'zan qarama-qarshi qo'yish bilan o'rgana boshlangan.

Ular quyosh, oy, yulduzlar harakatining, chaqmoq chaqishi, bulut kelishi, shamol esishi, qor-yomg'ir kabilarning mohiyatini to'la anglab yetmaganlar va animistik tushunchalarga asoslanib, ulaming hammasida jon bor deb tasavur qilganlar. Chunki inson hali tabiat va uning sirlarini to'g'ri tushunib yeta olmagan, totemistik tushunchalar hukmron bo'lgan paytda Quyosh va Oyni otalik va onalik boshlang'ich - ota va ona deb tasavur etgan.

O'zbek xalq dostonlarida G'irotda, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko'k kabi obrazlarining nufuzli o'rin tutishi ot totemi naqadar kuchli bo'lganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, tabiat va xayol haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik hamda totemistik qarashlarni vujudga keltirgan.

Tarixiy manbalarga qaraganda, quyi paleolit davrida (taxminan 40—41 ming yil ilgari) yer yuzining shimoliy qismida totemga oid "ayiq bayramlari" ham bo'lgan. Totem-ayiqqa bag'ishlangan afsonalarda bu bayram haqida ba'zi ma'lumotlarni o'qish mumkin. "Ayiqa bayrami" ning variantlari va elementlari Sibir xalqlarining ba'zilarida XX asr boshlarida ham saqlangan va bunday bayramlarda ayiqa timsolidagi kishi bosh qahramon bo'lib, u ayiqa qiliqlarini bajarib raqsga tushib yurgan. O'rta Osiyoda esa "Ayiqa o'yini" (pantomimik raqs sifatida) hozirgi davrgacha yetib kelgan. O'zbekiston hududida, shuningdek, Turkiya, Hindiston mamlakatlari hamda Kavkazorti respublikalarining ayrim shahar ko'chalarida ayiqa o'ynatib yurgan odamni ko'rish mumkin. Ular odamlar gavjum joylarda kichik tomosha ko'rsatib yurishadi. Ehtimol, bu qadimiy ayiqa o'yinidan bizgacha yetib kelgan totem hayvonlar o'yining bir ko'rmishi ham bo'lishi mumkin.

O'yinlarning tabiiy-tarixiy taraqqiyoti mehnat jarayoni bilan bog'liq. O'yinning ilk boshlang'ich ko'rinishi ibtidoiy jamiyatda sinkretik (qorishiq) san'at qismi sanalib, insonning mehnat va kundalik faoliyatini ifodalagan. Ular qo'shiq, raqs, musiqa bilan ajralmas bo'lgan.

Ishlab chiqarish qurollarining takomillashuvi va tilning taraqqiyoti bilan o'yinlar fikrlash faoliyatining mustaqil turiga ajralgan hamda o'z mazmuniga ko'ra boyib borgan, ularning harakatni talab qiladigan shakllari paydo bo'lgan.

O'yinlar faoliyatining mustaqil turi sifatida muayyan darajada hamma vaqt jamiyat hayot tarzini belgilagan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ko'pgina mamlakatlarning olimlari va pedagoglari o'yinlar mohiyatini, uning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini o'rganmoqdalar. Shunga ko'ra o'yinlarning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli hil nazariyalar, fikrlar va qarashlar mavjud.

Ijtimoiy muhit — bu zaruriy shart, negaki undan tashqarida insonning shakllanishi va rivojlanishi mumkin emas.

Inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot hisoblanadi, faqat jamiyatdagina u o'zining tabiatini ochib beradi.

Insonning biologik sifati bevosita ijtimoiy muhit orqali namoyon bo'ladi va jamiyatdagi munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Biologik zamin insonning ma'naviy rivoji uchun kerak va ayni paytda, zarur. Shuning uchun ham jamiyat hayotida mehnat o'yindan ko'ra katta kuchga ega, deb yuritilgan.

Bolaning o'yin faoliyati mazmunining manbai, yuqorida qayd qilinganidek, uni o'rab turgan hayot sharoiti bilan bog'liq bo'lgan.

Demak, bolalar o'yinlarimng tavsifi shunday, deb uqtiriladi. Insoniyat taraqqiyoti tarixida mehnat o'yinlari katta o'rin tutgan, ammo inson hayotida o'yin, uning kelajakdagi mehnat faoliyatidan oldin turadi. Masalan, bola o'ynab rivojlanadi, undagi shartli reflekslar birinchi va ikkinchi signallar tizimi, doimiy ravishda organizm atrof-muhit bilan o'zaro faoliyat va tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri paytida tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida shakllanadi. Shaxsning shakllanish va rivojlanish jaravoni insonning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish jarayoni hamdir.

Tarbiya oldindan ma'lum maqsadga yo'naltirigan bo'lib, bolaning ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi tajribani o'zlashtirishda hal qiluvchi holat bolaning o'ziga, uning faolligi, tashqi muhit bilan o'zaro munosabat doirasiga bog'liq. Shuning uchun o'yin — bu ijodiy faollikni improvizatsion (tayyorgarliksiz) holatida erkin namoyon qilishdir.

Qadimiy ajdodlarimizning yovvoyi hayvonlami ovlashlari va ulami o'zlariga bo'ysundirishga intilishilari ov voqealarini ijod qilish hamda namoyish qilishga zararar tug'dirgan. Mashhur olim D.U. Elkonin o'yinlarning kelib chiqishini o'rganib: "...ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o'yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o'ynash ularga yo'l qo'yilgan xatolami hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan", — deb xulosa chiqaradi.

O'zbek xalq o'yinlarining paydo bo'lishi bizning eramizgacha bo'lgan davrlarga, aniqrog'i ibtidoiy jamoa tuzumi davrlariga to'g'ri keladi. Buni tarixiy, arxeologik, etnografik, folklor va boshqa manbalar to'la - to'kis isbotlaydi. Qadimgi rim yozuvchisi Elianning guvohlik berishicha, ajdodlarimiz bo'lgan saklar qabilasida o'yin musobaqalari juda keng tarqalgan va ular xalqning sevimli odati sanalgan. Uning tasdiqlashicha, saklar qabilasining yigitlari ana shu o'yin-musobaqada o'zlari yenggan qizlarga uylanish huquqini olganlar.

Yunon tarixchisi Pomney Trog (eramizning I asrlari) qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda, bir vaqtlar O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya'ni harbiy salohiyatga ega bo'lgan kishilar bo'lgani qayd qilinadi. O'zbek xalq o'yinlari jamiyat ehtiyoji tufayli bir necha yuz yillar muqaddam vujudga kelgan. O'yinlarning yuzaga kelish tarixi mamlakatimizdagi tarix, arxeologik, etnografik, folklor, pedagogika, falsafa fanlarining, sport, teatr, raqs va sirk san'atining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek xalq o'yinlari mazmunan g'oyatda boy, shaklan xilma-xil bo'lib, muayyan ijtimoiy tarixiy tavsifga egadir. R. Yo'ldosheva qayd qilganidek, "O'yinlar xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an'alarini o'zida jamladi, betakror o'ziga xosligi va xususiyatlari bilan milliy madaniyatni nihoyatda boyitdi, avlodlar vorisligining xalq an'alarini o'zida mujassamlashtirdi".

O'yinlarning ibtidoiy jamoa davrida mavjudligi tan olingan bo'lsada, biror xalq o'yinlarining paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti masalalari hanuzgacha to'laqonli tadqiq qilinmagan. Lekin shu kungacha mavjud bo'lgan manbalarga tayangan holda, xalq o'yinlarining ilk paydo bo'lishi haqida mantiqiy fikr yuritsa va ular to'g'risida muayyan tasavur hosil qilsa bo'ladi.

Xalq o'yinlarining paydo bo'lishini aniqlashda O'rta Osiyo xalqlariga oid mehnat va ov qurollari, qadimiy inshootlarning qoldiqlari, qabrlar, tog'dagi konlar va g'orlar, qoyalarga ishlangan suratlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zi manbalarda insoniyatning ilk vatani Sharqiy Afrika deb berilgan bo'lsada, arxeologiya fanining eng so'nggi ma'lumotlariga ko'ra ilk neolit davrining oxiridan boshlab O'rta Osiyoda ibtidoiy odamlar yashay boshlagan (Farg'ona vodiysidagi Seleng'ur manzilgohi). Ayrim arxeolog olimlar O'rta Osiyoga ibtidoiy odamlar Afrika qit'asidan Sharqiy Osiyo orqali kelgan degan fikrni bildirgan bo'lsalar (V.A. Ranov), boshqa bir guruh olimlar O'rta Osiyo ham insoniyat beshigi deb hisoblaydilar. O'zbekiston hududida eng

qadimgi odamlar manzilgohi Farg'ona vodiysidagi Seleng'ur g'or makoni bo'lib, bu ilk paleolit davriga mansubdir [5]. Mamlakatimiz janubidagi mo'tadil iqlim va atrof-muhit bu yerda juda qadimdan insonning yashashi hamda tirikchilik qilishi uchun qulay manzilgohlar bo'lganligini tasdiqlaydi. Surxondaryo viloyatidagi Boysuntog' va Ko'hitang tog'larida mavjud g'or va o'ngirlar ibtidoiy davr odamlari uchun makon vazifasini o'tagan. Viloyat hududidagi eng qadimgi makon — neandertal odamning manzilgohi — Boysun tog'idagi Teshiktosh g'ori bo'lib, o'rta tosh (muste) davriga oiddir.

Xulosa qilib aytganda yurtimiz kelajagi buyuk bo'lishi eng avvalo uning farzandalari salomatligiga bog'liq uning eli sog'lom yurt qudratli va boy bo'ladi. Harakatli o'yinlardan foydalanishdan oldin uning rivojlanish tarixini bilish katta ahamiyatga ega. Boy mamlakatning eli sog'lom bo'ladi. Kunlar o'tgan sayin mustaqil O'zbekiston nomini dunyoga taratib, bayrog'imiz xilpiragan, madhiyamiz yangragan davlatlar soni o'sib bormoqda millionlab odamlar zamonaviy ma'naviyatga intilayotgan yangi mamlakatni o'zlari kashf etishyapti ularning hammasi davlatimiz rahbarining barcha sohada, shu jumladan sportda yurguzayotgan odil siyosatni mevasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Jismoniy tahbiya va sport to'g'risida"gi (yangi tahriri) "Xalq so'zi" gazetasi 2015 yil 5 sentyabr №174 (6357) - soni.
2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati" T. O'zDJTI nashriyot. 2005 y.
3. Z. Husaynova. Topishmoqlar. O'zbek folklor ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. — T., 1998. 100— 101-betlar.
4. T. Annayev, Sh. Shaydullayev. Surxondaryo tarixidan lavhalar. - T., A. Qodiriy nomidagi «Xalq merosi» nashriyoti, 1997. 18— 19-betlar.
5. Fayziev M. A. Methods of formation of knowledge and skills of students on the basis of computer simulation model (on the example of the subject "Computer Science and Information Technology"): Dis.... Kand. ped. science //Tashkent: TDPU. – 2008.
6. Toshturdiyevna K. D., Asfandiyarovich F. M. FORMATION OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF TEMURY QUEENS IN SCHOOL GIRLS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – C. 47-51.
7. Shadiev R. et al. Comparing effects of STR versus SELT on cognitive load //2019

Twelfth International Conference on Ubi-Media Computing (Ubi-Media). – IEEE, 2019. – C. 284-287.

8. Baigunissova G. et al. Flipped classroom method in higher education: a case of Kazakhstan //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2023. – C. 232-241.

9. Shadiev R., Shadiev N., Fayziev M. Facilitating online cross-cultural learning project with speech-enabled language translation technology //2020 IEEE 20th International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). – IEEE, 2020. – C. 223-225.

10. Шадиев Р. Н. и др. Развитие межкультурной компетенции в виртуальной среде обучения //Технологические тренды и наукоемкая экономика: бизнес, отрасли, регионы. – 2021. – С. 312-319.

11. Shaimerdenova N. et al. Developing Reading Literacy with Digital Texts //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2024. – C. 159-166.

12. Shadiev R. et al. Immersive Learning Environments: Fostering Self-directed Learning in Junior High School Students Through Virtual Tours //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2024. – C. 67-76.